

Botanika bog'larida ta'lim bo'yicha 11-Xalqaro Kongress

Ayni kunlarda Janubiy Koreyaning poytaxti Seul shahrida Botanika bog'larida ta'lim bo'yicha 11-Xalqaro kongress (ICEBG) bo'lib o'tmoqda.

Mazkur kongress Koreya Milliy Arboretumi (KNA) tomonidan tashkil etilgan bo'lib, unda butun dunyodan yetakchi botanika bog'lari direktorlari, olimlar, tadqiqotchilar va xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi nomidan kongressda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti direktori, akademik K. Tojiboyev, Toshkent Botanika bog'i direktori S.Abdinazarov hamda Dendrologiya laboratoriyasi mudiri E.Temirov ishtirok etmoqda.



Ushbu xalqaro kongress doirasida Koreya va Markaziy Osiyoning to'rtta davlati —Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston — strategik hamkorlikning yangi bosqichiga qadam qo'yimoqda. □Kongressning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

"Markaziy Osiyo Yashil Yo'li" loyihasining 3-bosqichini rasman boshlash hamda mintaqaga xos resurs o'simlik turlarini chuqur ilmiy o'rganishni yo'lga qo'yish.

Botanika bog'larida biologik xilma-xillik bo'yicha ta'limiy-amaliy dasturlarni rivojlantirish, arboretum va ilmiy ekspozitsiyalar orqali jamiyatni keng jalb etish va ekoma'rifiy faoliyatni kuchaytirish.

CABCN (Central Asia Botanic Garden Collaborative Network) doirasidagi hamkorlikni mustahkamlash, salohiyatni oshirish, ilmiy axborot almashuvi va qo'shma tadqiqotlarni kengaytirish.

Markaziy Osiyodagi resurs o'simliklar bo'yicha qo'shma tadqiqotlar uchun maqsadli turlarni aniqlash va muhokama qilish, ularning mintaqaviy ekotizim va bioxilma-xillikni saqlashdagi ahamiyatini aniqlash.

Kongress o'z ishini davom ettirmoqda va xalqaro ilmiy hamkorlik uchun muhim platforma bo'lib xizmat qilmoqda.